



ISSN 2181-1571



FarDU.
ILMIY XABARLAR
—
ANIQ VÀ TABIIY
FANLAR
—
Scientific journal
of the
Fergana State
University



2/2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natiyalilarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati qirtilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil
2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir
Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston) BEZGULOVA O.S. (Rossiya) RASHIDOVA S. (O'zbekiston) VALI SAVASH YYELEK (Turkiya) ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston) AXTARIYEVA R. (Rossiya)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya) LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya) A'ZAMOV A. (O'zbekiston) KLAUS XAYNSGEN (Germaniya) RAKETIN O. (Rossiya)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston) BERDISHEV A.S. (Qozog'iston) KARIMOV N.F. (O'zbekiston) CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya) TOJIBOYEV K. (O'zbekiston) TURAYEV A. (O'zbekiston)
---	--	--

Tahririyat kengashi

IJTIMOIY GUMANITAR FANLARI BO'YICHA		MAMAJONOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.,dots.
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.,prof.	KAXAROVA M (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.,dots.
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.,prof.	ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.
TOJIBOYEVA H. (O'zbekiston)	Ped.ilm.tad.instituti., p.f.d.(Dsc)	SABIRDINOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.,prof.
O'RINOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.,dots.	RAHIMOV Z. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.	XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.,dots.
DAVLYATOVA G. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.	MIRZAYEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.(PhD)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.,prof.	ANIQ VA TABIIY FANLAR BO'YICHA	
XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.,prof.	O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.,prof.
HOLMATOV B. (O'zbekiston)	FarDU, I.f.n.	KARIMOV Sh.T (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.,dots.
XAKIMOV N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.,dots.	OTAJONOV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.,prof.
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.	RASULOV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.,prof.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d (DSc)	ONARQULOV K. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.,prof.
MAXMUDOV O. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.,dots	SHUHRATOV SH. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.b.f.d.,dots.
ALIMOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.f.d.(PhD)	ASQAROV I. (O'zbekiston)	AndU, k.f.d.,prof.
JO'RAYEV H. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d(PhD),.dots.	IBRAGIMOV A.(O'zbekiston)	FarDU, k.f.d.,prof.
MAMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d (PhD),.prof.	MAMATQULOVA S. (O'zbekiston)	FarDU, k. f.b.f.d (PhD)
AHRORQULOV A. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.b.f.d.(PhD)	ABDUG'ANIYEV O. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d.(DSc)
G'ANIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.,dots.	AXMADALIYEV Yu. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d.,prof.
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.,prof.	YULDASHEV G. (O'zbekiston)	FarDU, q.x.f.d.,prof.
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.,prof.	ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.,prof.
SHUKUROV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.,dots.	SHERALIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.(PhD).
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.	SHERMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.n. dots.
UMAROVA N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.		

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qaq'oz bichimi: - 60x84 1/8

Bosma tabaq'i

Bosma labug i.

Adadi: 10 pueras

Buyurtma No:

Buyurutma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona, 2023

R.V.Mullajonov, Sh.N.Abdugapparova, J.V.Mirzaahmedova	
Qisman o'zgaruvchili dinamik sistema yechimining turg'unligi	7
K.R.Sattarkulov	
Akademik litseylarda kvant fizikasi bo'llimini mazmuni va o'qitish metodikasini takomillashtirish....	12
O.X.Otaqulov, O.U.Nasriddinov, O.S.Isomiddinova	
Maple dasturida differensial tenglamalarni sonli yechimini runge-kutta usulidan foydalanib topish	15
A.R.Tursunov, A.A.Axmedov	
Si/Cu pylonka tizimining yuzasida yaratilgan nano o'lchovli tuzilmalarning xususiyatlarini o'rganish	19

KIMYO

A.A.Ibragimov, T.Sh.Amirova, Sh.Sh.Isakova	
Kurmo o'simligi (<i>Diospyros kaki</i>) tarkibidagi makro va mikroelementlarini zamonaviy induktiv-bog'langan plazmali mass-spektrometriya usuli bilan aniqlash.....	24
N.X.Nazarova, O.M.Nazarov	
Olxo'ri mevasi va danak mag'zinining makro va mikroelement tarkibini unduktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya usuli bilan tadqiq qilish	29
M.U.Komolova, O.M.Nazarov, I.R.Mamajanova	
<i>Prunus cerasus L.</i> o'simligini element tarkibini Icp-Ms usuli bilan tadqiq qilish.	34
M.Y.Ismoilov, Sh.V.Jo'rayeva	
Farg'ona viloyati hududida o'sadigan <i>Peganum harmala</i> o'simligi tarkibidagi makro va mikroelementlarini zamonaviy induktiv-bog'langan plazmali mass-spektrometriya usuli bilan aniqlash.....	38
X.N.Baxronov, O.K.Ergashev, N.M.Esonkulova, F.G.Raxmatkariyeva, I.I.Absalyamova	
Cu ²⁺ zsm-5 seolitida toluol adsorbsiyasining differensial issiqqliklari va entropiyasi	43
F.S.Umurkulova	
Bug'doy kepagi gidrolizatini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish	48
I.R.Asqarov, A.S.Xoqiqulov, D.A.Kenjayeva	
Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi og'ir metallarni aniqlash	52
G.K.Odilova	
Glyuttonik diskursning lingvistik xususiyatlari	59

BIOLOGIYA

R.N.Akhmerov, V.Karimov, B.A.Niyazmetov, B.Z.Zaripov	
Issiqqonli va sovuqqonli hayvonlarning aerob metabolizmidagi farq: termogenezdagi ahamiyati ..	63
A.K.Xusanov, O.T.Sobirov, G.M.Zokirova, S.T.Tillayeva, M.L.Suyunboyeva,	
M.V.Ismoilov, M.M.Begijonova, R.R.Raxmanov	
Andijon dendropark va istirohat bog'laridagi manzaralari daraxtlarga zarar yetkazuvchi koxsider....	68
M.M.Mirzaolimova, Sh.S.Abdullayev, A.R.Batoshev	
O'zbekiston milliy gerbariysida (Tash) saqlanayotgan Dorema don (Apiaceae Lindl.) turkumining gerbariy namunalari tahlili	75
S.M.Xaydarov, X.X.Abdinazarov, N.A.Xo'jamshukurov	
Baliqchilik tarmog'ida ozuqa manbalari sifatida mikrosuvotlardan foydalanish.....	82
M.X.Akbarova	
Farg'ona vodiysidagi <i>Scutellaria L.</i> (Lamiaceae) turlarining tizmalar bo'yicha tarqalishi	87
Y.A.To'xtaboyeva, O.I.Sultonova	
Turli ozuqa muhitlarida <i>Bracteococcus bullatus</i> ni (Chlorophyta) yetishtirish tahlili.....	95
O.I.Qayumova	
Janubiy Farg'ona sharoitida <i>Macroglossum stellatarum</i> (Linnaeus, 1758) kapalagining (Lepidoptera, Sphingidae) biologiyasiga oid ma'lumotlar.....	100

G.M.Zokirova, I.I.Zokirov	
Ochiq urug'li o'simliklar (Pinóphyta) koleopterofaunasi (Coleoptera)	105
G.D.Mardanova, A.Sh.Xurramov	
Surxondaryo tabiiy geografik hududida bezgak chivini <i>Anopheles superpictus</i> Grassi (1899) turining morfologik va molekulyar-genetik tavsifi	110
Ch.F.Rahmonova	
Organizmda mikroelementlar tanqisligi va uning oldini olish yo'llari.....	118
A.E.Normatov, G.J.Baxtiyorova, D.I.Po'latova, M.Yuldasheva	
Farg'ona neftni qayta ishslash zavodi oqava suvlarini suv o'simliklari yordamida tozalashga oid tadqiqotlarni tahlili	125

GEOGRAFIYA

K.M.Boymirzayev, H.N.Naimov, D.X.Jo'raqulova	
Landshaftlar strukturasi va ularning zamонавиј antropogen jarayonlar ta'sirida o'zgarishi	129
A.A.Isayev, A.R.Arabboyev	
7-sinf materialar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanidan amaliy darslarda interfaol usullardan foydalaniш.....	133
J.J.Mamatisakov	
O'quvchilarga geologik bilimlar berishda tabiiy geografiya ta'lim vositalarining o'rni va ahamiyati.....	134
Y.I.Ahmadaliyev, A.E.Madraximov	
Geografik nomlarning ekologik funksiyalarini tadqiq etish usullari	138
N.X.Karimov	
O'quv dala amaliyotida poxodlarni tashkil etishda gigiyenik qoidalarga amal qilish tartibi.....	142

ILMIY AXBOROT

M.X.Akbarova, Z.N.Jo'rayev	
"Yozyovon cho'llari" davlat tabiat yodgorligida tarqalgan <i>Cistanche mongolica</i> Beck ning bioekologik xususiyatlari	147
M.T.Qarshiyev, A.Y.Ruzikulov, F.N.Nurkulov	
Biomodifikatorlar bilan polietilenni modifikatsiyalash hamda ularning xossalariни tadqiq etish	151
A.E.Normatov, I.A.Usmonov, D.I.Po'latova, M.Yuldasheva	
Neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarni yuksak suv o'simliklari yordamida tozalash	155
A.M.Mamasidiqov, A.A.Umarov	
Sotsiologiya fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni	159
B.A.Umarov	
Raqamlı texnologiyalar asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli.....	163
Z.A.Akbarova, N.Mamasoliyeva, S.Haydaraliyeva	
"Inson" tushunchasi mazmunining lisoniy tahlili.....	168
B.Q.Baratov	
Bo'lajak o'qituvchilarni uzlusiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	172
A.N.Qosimov	
Milliy identiklik tarbiyasi – ijtimoiy ehtiyoj va pedagogik muammo sifatida	179
J.A.Qurbanov	
Integratsion ta'limi asosida bo'lajak o'qituvchilarning intellektual madaniyatini rivojlantirishning interfaol metodlari	184
J.V.Solijonov	
Fanlararo hamkorlik vositasida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari.....	190
G.Z.Ganiyeva	
Ingliz tilidagi toponimlarni izohlashda leksikografik tamoyillar (Buyuk Britaniya va Amerika joy nomlari lug'atlari misolida)	194

X.X.Abduraxmonov	
Yengil atletika mashqlari yordamida maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanish ko'sratkichlarini oshirish	199
B.B.Umarov	
Abu Bakr narshaxiy asarida Buxoro shahri tavsifi.....	203
R.Mardonov	
G'arb va sharq falsafasining pedagogik asoslari: tahlil va muhokama.....	207
X.O'.Samatov	
Tasavvufda tariqat a'zolarining jamoadan alohidalanishi	210
Z.A.Boboyeva	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish usullari.....	217
G.U.Radjabova	
Ta'lif tizimi va ta'lif xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari	220
N.N.Bobojonov	
Talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	226
E.S.Yuldashev	
Bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish modeli	231
N.V.Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shahar topografiyasini o'rganilishiga oid.....	236
A.M.Toshpo'latov	
Yoshlarni harbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi.	241
I.A.Maxmudova	
Talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masala sifatida.....	247
A.N.Qosimov	
Umumiy o'rta maktab o'quvchilari harakat faolligi va jismoniy tarbiyaga qizishini o'rganish	250
F.Sharipova	
Birinchi bosqich talabalariga klinik lug'atni o'rgatish	255
G.Ulug'bekova, Sh.Adhamov	
7-12 yoshdagи bolalarda yuzning fizionomik balandligi o'sish dinamikasi	260
Z.Hamrayeva	
Qisqa masofalarga yugurishda qizlarda tezlik va quvvat fazilatlarini rivojlantirish metodikalari.....	263
U.Jabborov	
11-12 yoshli o'g'il bolalar o'tasida voleybol o'ynashning texnikaviy usullari	269
M.Kataeva	
Ta'lif jarayonida mobil ta'lifning o'rni va ahamiyati	275
O.Yadgarova	
Shaxsni o'rganishda proyektiv metodikalarning diagnostik imkoniyatlari	279
I.Imomov	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lif jarayonida yuzaga keladigan nizolarni pedagogik tashxis etish	283
M.Babakulova, M.Radjabova	
Interfaol ta'lif texnologiyalari yordamida xitoy tilini o'rganish ko'nikmalarini oshirish	288
X.Tojiyev	
Bo'lajak harbiy ta'lif o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning texnologik - pedagogik shart-sharoitlari	292
D.Buranova	
Tibbiyot uchun kommunikativ ingliz tili o'qitishning samarali metodi sifatida	300
D.Yo'idosheva	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari	303
G.Abdullahayeva	
Psixologiya – chet tillarini o'rganishning asosiy jihat.....	308

M.Nasritdinova	
Artpedagogikaning bo'lajak musiqa ta'llimi o'qituvchilari ijodkorlik qobiliyatları rivojidagi imkoniyatlari	312
G.Mo'minova	
Universitet talabalarining so'z o'rganish strategiyalaridan foydalangan holda leksik kompetensiyasini rivojlantirish	390
N.Mamatqulova	
Ta'llimda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari	321
U.O'rishov	
Estrada jaz musiqasi evolyutsiyasi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	325
S.Uraimov	
Maktabda gipertermiya sharoiti orqali jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini monitoring qilish	331
I.I.Toshpulatov	
Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi	334
F.U.Mirjavharova	
Jamiyatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	337
M.Y.Isaqov, D.R.Tojiboyev	
O'tloqi-voha tuproqlari tarkibidagi mikroelementlar tahlili va biologik singdirish koeffitsiyenti.....	341
I.I.Muhitdinov	
Jinoyat geografiyasi va uning mohiyati, asosiy yo'nalishlari	346
T.X.Tashmetov	
Ijtimoiy tarmoqlardagi yot va zararli g'oyalarning o'ziga xos xususiyatlari.....	350
D.B.Makhamedova	
Ta'llimdagi muqarrar yangi media	355
A.T.Akbarov	
Oilada kattalar sportini tashkillash.....	359

FANIMIZ FIDOYILARI

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik Sayyora Sharafovna Rashidovaning 80 yilligiga	364
--	-----

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI YOT VA ZARARLI G'YOYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ЧУЖДЫХ И ВРЕДНЫХ ИДЕЙ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

FEATURES OF ALIEN AND HARMFUL IDEAS IN SOCIAL NETWORKS

Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich¹

¹**Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich**

– Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar mafkurani singdirishning asosiy vositasi sifatida qaror topib, g'oyaviy omillar targ'ibotida yetakchi o'ringa chiqdi. Ijtimoiy tarmoqlarning asosiy manbalari esa biz tadqiq etayotgan ijtimoiy tarmoqlarda ekanligi esa masalaga yanada jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etadi. Zero, insonlar ongini manipulyatsiya qilishga bo'lgan urinishlarni ko'pincha ijtimoiy tarmoqlarda muntazam uchratish mumkin. Taassufki, madanly gegemoniya o'natish o'zga hududlarni o'z ta'sir doirasiga olish, inson ongini boshqarishning, ya'n manipulyatsiyaning keng tarqalgan texnologiyasiga aylanmoqda. Shunday ekan, mamlakat barqarorligiga raxna soluvchi mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar va xatarlarga qarshi doimo ogoh va sergak bo'lish, uni oldini olish va bartaraf etish bugungi kun davr talabidir.

Аннотация

Сегодня социальные сети вышли на передний план в пропаганде идеологических факторов, утвердившись в качестве основного средства внушения идеологии, учитывая тот факт, что основные источники социальных загадок находятся в социальных сетях, которые мы исследуем, требует более серьезного внимания к этому вопросу. Попытки манипулировать сознанием людей часто можно встретить регулярно в социальных сетях. Установление культурной гегемонии становится все более распространенной технологией управления, то есть манипулирования человеческим разумом, захвата чужих территорий в сферу его влияния. Таким образом, постоянная бдительность в отношении идеологических и информационных атак и рисков, влияющих на стабильность страны, предотвращение и устранение которых сегодня является требованием эпохи.

Abstract

Today, social sites have come to the fore in the propaganda of ideological factors, having established themselves as the main means of indoctrination of ideology, considering the fact that the main sources of social sites are in the social networks that we are investigating requires more serious attention to this issue. After all, attempts to manipulate people's minds can often be found regularly on social networks. The establishment of cultural hegemony is becoming an increasingly common management technology, that is, manipulating the human mind, seizing foreign territories into its sphere of influence. Thus, constant vigilance and vigilance against ideological, ideological and informational attacks and risks affecting the stability of the country, the prevention and elimination of which is a requirement of the era today.

Kalit so'zлari: Targ'ibot, axborot, internet, kommunikatsiya, globallashuv, texnologiya, g'oya, ma'naviyat, mafkura, intellektual, kompyuter, xuruj, tahdid, fatvo, gedonizm, yevropasentrizm, ekstremizm, terrorizm, "Ko'k kit", ijtimoiy tarmoq, "Facebook", "Odnoklassniki", "Vkontakte", "Viber", "Instagram", "Google", "Telegram", "WhatsApp", "Twitter", "TikTok".

Ключевые слова: Пропаганда, информация, интернет, коммуникация, глобализация, технология, идея, духовность, идеология, интеллектуальность, компьютер, атака, угроза, фетва, гедонизм, европоцентризм, экстремизм, терроризм, "Синий кит", социальная сеть, Facebook, Одноклассники, ВКонтакте, "Viber", "Instagram", "Google", "Telegram", "WhatsApp", "Twitter", "TikTok".

Key words: Propaganda, information, Internet, communication, globalization, technology, idea, spirituality, ideology, intelligence, computer, attack, threat, fatwa, hedonism, Eurocentrism, extremism, terrorism, Blue Whale, social network, Facebook, Odnoklassniki, VKontakte, "Google", "Telegram", "WhatsApp", "Twitter", "TikTok".

KIRISH

Bugun global o'zgarishlar ta'sir o'tkazmagan biror sohani topish qiyin. Ayniqsa, insonlar o'tasidagi muloqotning kuchayib ketishiga bu jarayonning qo'shayotgan hissasi haqida yetarlicha dalillar mavjud. Ayni davrda zamona viy dunyonи axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki ular allaqachon hayotimizning bir qismiga aylanib ulgurgan. Bir necha yillar oldin internet haqida, virtual muloqot haqida tasavvurga ega bo'lмаган odamlar hozir muloqotning eng oson va har taraflama qulay yo'liga o'tishdi. "O'rgimchak to'ri"ning takomillashuvi esa "ijtimoiy tarmoq" tushunchasining paydo bo'lishi va shakllanishiga zamin yaratdi.

Tadqiqotlarda "Ijtimoiy tarmoq – odamlarning muloqot qilish, o'xshash qiziqishlari yuzasidan boshqa odamlar bilan ijtimoiy munosabatlarni yaratish uchun foydalanadigan onlayn platforma"[1], -deb ta'rif berilgan. Ilk bor odamlar o'tasidagi muloqot vositasi sifatida ijtimoiy tarmoqning elektron pochta ko'rinishi paydo bo'ldi. Bu kompyuter tarmoqlari orqali bog'lanishning ilk ko'rinishi edi. Dastlab ikki kishi o'tasida ma'lumot almashish uchun yaratilgan elektron ma'lumot almashuv keyinchalik guruuhlar o'tasidagi muloqot vositasiga aylandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ijtimoiy tarmoqlar haqida ilk bora o'z tasavvurlarini bayon qilgan olimlar R.Solomonoff va A.Rapoort o'tgan asr o'talarida muloqotning virtual ko'rinishi haqida o'z fikrlarini bayon qilishgan. Vengriyalik mutaxassislar P.Erdos va A.Renilar ijtimoiy tarmoqlarni shakllantirish borasidagi tasavvurlarini aytib o'tishgan. "Ijtimoiy tarmoq atamasini alohida tushuncha sifatida 1954-yil Manchester maktabi namoyandalaridan biri J.Barns ilmiy iste'molga olib kirdi. Internet tarmog'ida insonlar o'tasidagi muloqotning avj olishi, rivojlanib ketishini olimlar ijtimoiy tarmoqlarning tezkor faoliyati bilan bog'lashadi"[2]. Aslida ham shunday. Siz virtual olamda tez va qulay muloqotni kunning yoki tunning istalgan vaqtida o'rnatishingiz mumkin. Suhbatdoshingiz bilan yozishib, gaplashib, uni ko'rishingiz ham mumkin. Buning uchun kompyuter yoki telefon va internet bo'lsa kifoya.

Shu jihatdan, bugungi kunda mashhur bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifasiga ega bo'lmagan insonni topish qiyin. Ayniqsa, bu holatning yuqori darajasini yoshlar orasida ko'rish mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, dunyo yoshlari, jumladan, mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlod asosiy vaqtining taxminan 50 foizi virtual muloqotga sarflanmoqda. Gap shundaki, ko'pchilik yoshlar o'z hayotlarini ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaydilar.

Bu haqda ijtimoiy tarmoqlar tahlili borasida tadqiqotlar olib borgan olim K.Yang "Internetga qaramlik tashxisi", deb nomlangan so'rov natijalarini ma'lum qiladi. Unga ko'ra, "internetga qaram bo'lganlarning qariyb 54 foizi internetning inson sog'lig'i va ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini bilgan holda tarmoqda o'tirish vaqtini kamaytirmaydi. Ularning ko'pchiligi "Bu yomon illatdan xalos bo'lolmayman"[3]-deb o'ylashadi. Avvaliga internetni butunlay uzishdi, bir oz vaqt o'tgach esa ular internetsiz bo'lolmasliklarini anglab yana tarmoqqa qaytdilar"[4].

Ma'lumki, butun dunyo bo'ylab eng tez ommalashayotgan ijtimoiy tarmoq platformalaridan biri bu – "TikTok"dir. Bugungi kunda urfga aylanib borayotgan tiktokerlarning o'zini namoyon qilishga bo'lgan xohish va intilishlari ayrim yoshlarni g'ayritabiy ishlarga undamoqda. Jamiyatda tayinli o'z o'rniga ega bo'lmagan ayrim shaxslar o'zlarini "tanitish", "iqtidori"ni ko'rsatish orqali nimanidir isbotlashga intilmoqda. Bunday intilishlar jamiyat ma'nnaviy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatib, yoshlarning saviyasi va didi pasayishiga sabab bo'lyapti. Ayniqsa, mamlakatimizning yoshlari ham "TikTok"da turli bema'ni qiliqlar qilib, raqslarni tasvirga olib, behayo videolar qo'yib, o'z sahifasiga joylashtirish orqali omma e'tiborini qozonishga harakat qilayotganligi achinarlidir. Buning natijasida esa yoshlarda ma'nnaviyatimizni unutish, milliy qadriyatlarimizni yaxshi farqiga bormaslik, didsizlik, hissizlik, manqurlashish holatlari kuzatilmoqda. "TikTok" singari chetdan kirib kelayotgan hodisani "trend" sifatida qabul qilish, ko'r-ko'rona o'zlashtirish nodonlikdan boshqa narsa emas. Qolaversa, bugun biz boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlariga bepisandlik bilan qarash, ularni qo'porish, aholining, ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini egallahsha qaratilgan tahdidlar ko'payib borayotgan murakkab bir davrda yashayapmiz. Shunday ekan, ma'nnaviyati butun, oq-qorani tanigan, buyuk ajododlarga ega xalq ekanmiz, yoshlarda "TikTok" singari platformalardan foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz zarur.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyo aholisining 90% dan ortig'ida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyati mavjud. Foydalanayotganlar soni ham hayratlanarli. Birgina "Facebook" ijtimoiy tarmog'idan 1,5 milliarddan ortiq kishi foydalanadi. Rossiyalik olim I.N.Panarinning ta'kidlashicha, har kuni "Facebook" ijtimoiy tarmog'iga 936 milliondan ortiq foydalanuvchi tashrif buyuradi. Umumiy foydalanuvchilar sonining 51 % foizi kamida bir oyda bir marta tarmoqqa kiradi. Bir foydalanuvchining "Facebook"da bir kun davomida bo'lishi vaqt 21 daqiqa. Eng faol "Facebook" foydalanuvchilari Kanadada yashaydi. Osiyolik foydalanuvchilar soni ham oz emas, 253 million kishidan ortiqroq. Bu raqam bundan ham ko'p bo'lishi mumkin edi, ammo Xitoyda "Facebook"ka kirish ta'qilangan. "Google"ga tegishli video-xosting xizmati mashhurligi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Har oy saytg'a 1,3 milliarddan ortiq kishi tashrif buyuradi. Har oyda internet foydalanuvchilari saytdagi videolarni tomosha qilish uchun 6 milliard soatdan ko'proq vaqt sarflashadi. "Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, insonlarning ijtimoiy tarmoqda sarflaydigan minimal

vaqt 3 soatni tashkil etadi. Bir qarashda kishini xavotirga soladigan hech narsa yo'qdek”[5]. Inson bu 3 soat mobaynida turli hududlarda yashaydigan yaqinlari, tanishlari, qarindoshlari bilan muloqot qilmoqda, bunda nima notabiylilik bor, deb o'ylash mumkin. Albatta, ushbu muloqot jarayonlarining ijobjiy tomonlarini inkor etib bo'lmaydi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarda faqat ezgu niyatni ko'zlagan insonlar o'tirmasligini o'nlab misollar bilan asoslash mumkin. Ayniqsa, yoshlarda bunday holat ko'proq yolg'iz qolish istagini kuchayishida namoyon bo'ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tarmoqlarda mashhur bo'lgan “Ko'k kit” o'yini ham yolg'izlikni, jamoaviy munosabatlardan qochishni targ'ib qilib, oxir-oqibat yoshlarni o'z joniga qasd qilishga yetaklovchi jihatlarni oshkor qildi. Bu haqidagi dastlabki shov-shuvlar 2015-yildan boshlangan. “Internetda “Ko'k kit”, “Tinch uy”, “f58”, “f57” kabi “o'lim guruhlari” haqida turli fakt va ma'lumotlar bor: “Ko'k kit”ni 18 yoshga to'limgan, mustaqil fikri, qiziqqan mashg'uloti yo'q o'smirlar qiziqtiradi. Boshida oson, qiziq topshiriqlar berib o'smirning ichiga kirib oladi. Keyinchalik tanasiga tig' bilan ko'k kitning suratini chizdirib, bitta kuyni 3 kun tinimsiz tinglab, topshiriqlarni bajargan o'smirlarni maqtab, tabriklaydi. Bu nihoyat 50-kunda so'nggi – 50-topshiriq (suiqasd)ni bajartirib, uni videoga olishni o'rgatuvchi o'lim o'yini, deyiladi.

Aytishlaricha, “Facebook” milliarddan ortiq akkaunt ro'yxatdan o'tgan birinchi ijtimoiy tarmoq bo'lib, bugungi kunda u deyarli 2,45 milliard faol foydalanuvchiga ega. Oltinchi o'rinni egallagan fotosuratlar almashish bo'yicha “Instagram”da har oy bir milliard faol akkauntlar mavjud. Yetakchi ijtimoiy tarmoqlar odatda bir nechta tillarda mavjud bo'lib, foydalanuvchilarga do'stlari yoki geografik, siyosiy yoki iqtisodiy chegaralaridagi odamlar bilan bog'lanish imkoniyatini beradi. “Taxminan 2 milliard internet foydalanuvchisi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqda va mobil qurilmalardan foydalanish va mobil ijtimoiy tarmoqlarning soni tobora ko'payib borayotgani sababli bu raqamlar yanada o'sishi kutilmoqda”[6]. Shundan kelib chiqib aytish lozimki, axborot sohasidagi globallashuv tobora kuchaymoqda. Buning ortidan millionlab yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan bosh ko'tarolmay qolganini ko'rishimiz mumkin. Bugun ijtimoiy tarmoqlarda chek-chegarasi yo'q ma'lumotlar to'lib toshdi. Undan kimdir siyosiy qurol sifatida foydalanayotgan bo'lsa, boshqasi o'z g'oyalarini zo'r berib tarqatishga urinmoqda. Hozir turli kanal va guruhlar orqali kelayotgan xabarlar, yolg'on, asossiz ma'lumotlar odamlarni vahimaga solib, qalblarini jarohatlamоqda. Insoniyat axborotdan foydalanish madaniyatiga ega bo'lmас ekan, “dahshatli yolg'onlar” iskanjasidan chiqib keta olmaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra, ekstremistik oqimlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan keng foydalanish, internet tizimining ijtimoiy tarmog'i orqali turli tillarda targ'ibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoalar tuzishga harakat qilmoqdalar. Masalan, yirik terrorchi tashkilotlar o'z saflariga faol tarzda ijtimoiy tarmoqlar orqali, asosan, 17-35 yosh oralig'ida bo'lgan kishilarni yollamoqda. Bunda psixologik ta'sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoq a'zolarining sahfalari, qo'yilayotgan rasmlar, sharh va izohlar hamda olib borilayotgan suhbat va mavzularni puxta o'rganadi va shu asosida “nishon”ga olingan shaxsga mavzuga oid materiallar internetning “Facebook”, “Odnoklassniki”, “Vkontakte”, “Viber”, “Instagram”, “Telegram”, “WhatsApp”, “Twitter” va “TikTok” kabi keng auditoriyaga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali yozma xabar, matn, fotosurat, stiker rasmlar, audio-video rolik jo'natiladi va o'zaro aloqa yo'iga qo'yiladi. Natijada, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan yot va zararli g'oyalar ohanrabodek yoshlarni o'ziga jaib etib boradi. Bu haqda Birinchi Prezident Islom Karimov “Tafakkur” jurnaliga bergan intervyusida, shunday fikr bildirgan: “...ba'zan bezozor bo'lib tuyuladigan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi”[7].

Shu ma'noda, aholini, ayniqsa, yoshlar orasida mutaassiblikka yo'g'rilgan bunday formulalarning tobora ommalashuvi hamda ularda turli ko'rinishdagi buzg'unchi “fatvo”larning berib borilishi muammoning naqadar jiddiy ekanini namoyon etadi. Yoshlar katta kuch hisoblanib, ularning endi shakllanib kelayotgan ongiga nima singdirilsa, o'sha muhrlanadi. Shuning uchun ham radikal oqimlar aynan yoshlarimizni o'z tuzog'iga ilintirishga harakat qiladilar. Yoshlarning ishonuvchanligi, kuch-g'ayrati, qiziqqonligi ularning maqsadini amalga oshirishda qo'l keladi.

Bugungi kunda aksariyat yoshlarning qo'lida ijtimoiy tarmoqqa ulangan zamonaviy uyali aloqa vositalari mavjud. Bu hol ularning yuqorida sanab o'tilgan turli xil ijtimoiy tarmoqlarga bevosita ularish, do'stlari va tanishlari bilan uzuksiz muloqot qilish imkonini beradi. “Ayni paytda, statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda eng ko'p yuklab olinayotgan dasturlar ichida

"WhatsApp", "Telegram" tarmoqlari yetakchi o'rinni egallaydi. Ilm-fanning yutug'i bu yangiliklar insonlarning uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilayotgani shubhasiz"^[8]. Shu ma'noda, bu kashfiyotlar dunyo yangiliklaridan bir zumda voqif bo'lish va ma'lumotlarni oson tarqatish imkonini ham beradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, zamonaviy bosqichda ulkan axborot makoni bo'lib qolgan "WhatsApp" messenjeri haqida qisqacha fikr yuritsak. **"WhatsApp"** – smartfonlar uchun ishlangan tezkor ma'lumotlar almashish ilova dasturi bo'lib, u orqali matn, xabar, foto, video va audio jo'natish mumkin. "Hozirda "WhatsApp"ning nihoyatda ommaviylashib borayotganligini quyidagi dalillar tasdiqlaydi: ma'lumotlarga ko'ra, 2013-yil avgust oyida ushbu dastur auditoriyasi 300 mln.dan ziyod foydalanuvchini tashkil etgan"^[9]. "WhatsApp" jamiyat a'zolarining kundalik hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi vaqlarda O'zbekistondagi smartfon egalari va internet foydalanuvchilari ham mazkur messenjer imkoniyatlaridan faol foydalanayotganligini qayd etish joiz. Biroq, undagi fotosuratlar va videolavhalarni oson va tez tarqatish mumkinligi, ba'zi holatlarda, noxolis niyatdagi foydalanuvchilarga qo'l kelmoqda. Misol uchun, shu yili milliy estradamiz ba'zi xonandalarining behayo mazmundagi fotosurat va videolavhalari, shuningdek, noma'lum qizning video yo'llanmalari va unga taqlid qilingan parodiyalarning "WhatsApp" dasturi orqali keng ommalashib, tarqalib ketishi fikrimiz isbotidir.

"WhatsApp" messenjeri nisbatan anonim tizim bo'lib, unda faqat ma'lumotni yuborgan so'nggi manzil ko'rinadi. Yuborilayotgan dastlabki xabar ikkinchi qo'ldan o'tgandan so'ng, soxta axborotni jo'natgan shaxsni aniqlash murakkab bo'lib qoladi. Bunday imkoniyat esa g'arazli niyatdagi shaxslarga qo'l keladi. Ular tomonidan tarqatilayotgan dezinformatsiya va ba'zan yolg'on xabarlar jamiyatda beqaror vaziyatni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, dinlar o'tasida adovatni keltirib chiqaruvchi, nizoli vaziyatlarga sabab bo'luvchi, shuningdek, insonlar orasida vahima uyg'otishga qaratilgan ig'vo, fitna-fasod xabarlarning keng tarqalayotgani ko'pchilikni tashvishga solishi tabiiy. Ayniqsa, yoshlar o'tasida urfga aylangan mazkur muloqot tizimidan ekstremistik oqim a'zolari ham unumli foydalanmoqda. Chunki internet orqali aloqa bog'lashning osonligi, foydalanuvchilar sonining ko'pligi, aloqaning anonimligi, tashqaridan boshqarish va tahrir qilishni cheklanganligi, axborotlar qisqa muddatda keng makonda tez tarqalishi, faoliyat sarf-xarajatlarining bir necha barobar kamligi terrorchi guruqlar uchun o'z tarafдорлari sonini ko'paytirishning qulay jihatlaridan biri hisoblanadi.

Umuman, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar salbiy ta'sirining oldini olish uchun yoshlarning ma'naviy salohiyatini oshirish, axborot almashish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari orqali maxsus internet dasturlarini ko'proq tuzib, yoshlarga mo'ljallangan turli mavzular bo'yicha maqsadli loyiha va sohaviy tizimli dasturlarni tayyorlash va ularni doimiy tarzda yangilab borish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki: *birinchidan*, farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, avvalo, ularning ma'naviyatini yuksaltirishimiz zarur. Buning uchun chuqur egallangan bilim, tajriba, shuningdek, ajodolarimizdan qolgan ulkan ma'naviy merosni tadqiq qilish zarur bo'ladi. Toki yoshlarimiz milliy o'zligini, dunyonи chuqur anglaydigan, zamonga hamnafas qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishishi zarur. Ana shunda yot va zararli, odob-axloq tushunchalarini rad etadigan g'oyalalar ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi; *ikkinchidan*, ijtimoiy tarmoqlarsiz zamonaviy dunyoni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ammo uning zararli oqibatlarini minimallashtirish va foydalı tomonlarini targ'ib qilish bugungi kun talabidir. Shu sababli, o'sib kelayotgan yosh avlod ongi va tafakkurida zararli g'oyalarning mavjud bo'lmasligini ta'minlash, ularda ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri va maqsadli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish jamiyatimiz vakillari oldida turgan asosiy vazifalardandir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Rajabov H.I Global tarmoq manzarasi.\ Globallashuv sharoitida axborot tahidillariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. –B. 206. (Rajabov H.I global network landscape.\ Problems of creating modern technologies to combat information threats in the context of globalization: materials of the international scientific and practical conference. — Tashkent: Science and Technology, 2020. – B. 206.).

- Rajabov H.I Global tarmoq manzarasi.\ Globallashuv sharoitida axborot tahidillariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. –B. 206-207. (Rajabov H.I global network landscape.\ Problems of creating modern technologies to combat information threats in the context of globalization: materials of the international scientific and practical conference. — Tashkent: Science and Technology, 2020. – B. 206-207.).

3. Tashmetov T.X. Yoshlarni yot va zararli g'oyalardan himoyalashda axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish texnologiyalari. – Toshkent: O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi, 2021. –B. 19. (Tashmetov T.X. Technologies of using the information and communication system in protecting young people from alien and harmful ideas. — Tashkent: The Main Library of the Academy of Sciences of Uzbekistan, 2021. – B. 19.)
4. <http://cyberpsy.ru/articles/young-internet-addiction/> (<http://cyberpsy.ru/articles/young-internet-addiction/>)
5. Rajabov H.I Global tarmoq manzarasi.\ Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariiga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. –B. 207. (Rajabov H.I global network landscape.\ Problems of creating modern technologies to combat information threats in the context of globalization: materials of the international scientific and practical conference. — Tashkent: Science and Technology, 2020. – B. 207.)
6. Глобал дигитал популатион 2020 Статиста statistista.com/statistics/617136/digital-population-worldwide. (Global digital population 2020 Statistician statistician. com/statistics/617136/digital-population-worldwide.)
7. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. –Toshkent:Tafakkur, 1998. -№ 2. B-6. (Karimov I.A. Let the ideology of our society serve the people-the people, the nation-the nation. — Tashkent:Tafakkur, 1998. -No. 2. B-6.)
8. Egamberdiyev R.I Globallashuv sharoitida yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan asrashning dolzarb masalalari.\ Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariiga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. –B. 173. (Egamberdiev R.I. topical issues of protecting young people from information attacks on the Internet and social networks in the context of globalization.\ Problems of creating modern technologies to combat information threats in the context of globalization: materials of the international scientific and practical conference. — Tashkent: Science and Technology, 2020. – B. 173.)
9. <http://www.forbes.ru/news/243191-auditoriya-prilozheniya-whatsapp-dostigla-300-mln-polzovatelei.>
[\(http://www.forbes.ru/news/243191-auditoriya-prilozheniya-whatsapp-dostigla-300-mln-polzovatelei.\)](http://www.forbes.ru/news/243191-auditoriya-prilozheniya-whatsapp-dostigla-300-mln-polzovatelei.)

“FarDU. ILMUY XABARLAR - НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ”
JURNALIDA CHOP ETILADIGAN MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN
T A L A B L A R:

1. Jurnal tahririyatiga taqdim etilayotgan maqolaga 1) muallif(lar) ishlayotgan muassasa rahbariyatining yo’llanma xati; 2) ekspert hay’ati dalolatnomasi - 2 nusxada; 3) maqola yozilgan ilmiy yo’nalish bo'yicha tahrir hay'atiga kiritilgan fan doktori hamda filolog mutaxassis imzolagan (imzo tegishli tartibda tasdiqlangan bo'lishi lozim) taqriz-tavsiya ilova qilinadi.
2. Maqolalar o’zbek, rus yoki ingliz tillarida IMRAD talablari asosida yozilgan bo'lishi lozim.
3. Maqola qaysi tilda yozilishidan qat’iy nazar unga uch til – o’zbek, rus va ingliz tillarida annotatsiya 150-200 so’z, tayanch so’z va iboralar (kalit so’zlar) va UDK raqami ilova qilinadi.
4. Maqola jurnal tahririyatiga “Microsoft Word” dasturida (“Times New Roman” 14 o’lchamli shriftda, satrlar orasi bir yarim intervalda) terilgan holda ikki nusxada, elektron varianti bilan topshiriladi.
5. Maqolaning umumiyligi hajmi (rasm, jadval va diagrammalar bilan birligida) 8-10 sahifadan, qisqa xabarlarning hajmi 4-5 sahifadan oshmasligi talab etiladi. Maqolaning bir nusxasi muallif(lar) tomonidan imzolanoladi.
6. Muallifning familiyasi, ism-sharifi, ish joyi, lavozimi, manzili (uy va xizmat telefon raqamlari, elektron pochta) ko'rsatiladi.
7. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo'lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to'liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
8. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiyligi ro'yxatda ko'rsatiladi. Matn ichidagi ko'chirmadan so'ng iqtibos olingan asarning ro'yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o'rinda kitob, to'plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to'liq nomi, nashr ko'rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko'rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko'rsatiladi.
9. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo'lsa, barcha savol va e'tirozlar bo'yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
10. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnnini qisqartirish va unga tahririyo o'zgartirishlar kiritishga haqlidir.
11. Yuqorida tahlilchilarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.